

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YURIDIK XIZMAT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI**

Isakova Shoxsanam Nuriddin qizi

Farg'onan viloyati yuridik texnikumi "Sud-huquqiy faoliyat" yo'nalishi  
1-bosqich 32-guruh o'quvchisi

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada muallif so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida yuridik xizmat faoliyatini rivojlantirishning huquqiy asoslari, qabul qilingan me'yoriy hujjatlar va ularni mohiyati xususida so'z yuritgan.

**Kalit so'zlar:** yuridik xizmat, Prezident qarorlari, normativ-huquqiy hujjatlar, yuridik xizmat ko'rsatish markazlari, "E-huquqshunos" elektron tizimi.

### **Аннотация:**

В данной статье автор подробно рассказал о правовых основах развития деятельности юридической службы в Республике Узбекистан за последние годы, принятых нормативных актах и их характере.

**Ключевые понятия:** юридическая служба, президентские указы, нормативно-правовые акты, центры юридического обслуживания, электронная система "э-юрист".

### **Abstract:**

In this article, the author spoke about the legal basis for the development of legal service activities in the Republic of Uzbekistan in recent years, the normative acts adopted and their essence.

**Key concepts:** legal service, presidential decisions, regulatory legal acts, legal service centers, electronic system "e-lawyer".

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar, davlat boshqaruvida ma'muriy islohotlarning izchil amalga oshirilishi yuridik xizmat tizimida ham muayyan tarkibiy



## Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1<sup>st</sup> July - 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

yangilanishlarni amalga oshirilishini taqozo etmoqda. Shu sababli, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tashkil qilish borasidagi o'zgarishlar oqibatida ularning yuridik xizmati ham bugungi kun talablari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlari, davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik boshqaruv organlari, davlat korxona, tashkilot va muassasalari yuridik xizmatining huquqiy maqomi bir qator qonunlar, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlangan nizomlarda muayyan darajada belgilab qo'yilgan.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 24 avgustdagagi 182-sonli qarori qabul qilindi va mazkur qaror bilan "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining yuridik xizmati to'g'risida"gi va "Xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalarini, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati to'g'risida"gi nizomlar tasdiqlandi.

2016 yildan bugunga qadar yuridik xizmat sohasini isloh qilish va takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlari qabul qilindi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi "Sudhuquq tizimini yana-da isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida davlat organlarida yuridik xizmat faoliyatini yana-da takomillashtirish va samaradorligini oshirish vazifasi qo'yildi hamda 2017 yil 19 yanvar kuni "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2733-son qarori qabul qilindi.

2021 yil 29 iyunda yurtboshimizning "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5168-son qarorlari qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq 2021 yil 1 oktyabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1998. – № 9. – 170-modda; "O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv organlari va korxonalardagi yuridik xizmat to'g'risida"gi Nizom // O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami. – 1993. – № 3. – 8-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Devoni to'g'risida"gi Nizom // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. – 2005. – № 3-4. – 149 modda; "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Apparatining Yuridik bo'limi to'g'risida"gi Nizom // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2004. – № 48-49. – 496-modda va boshqalar.



## Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1<sup>st</sup> July - 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzurida yuridik xizmat ko'rsatish markazlari respublikaning barcha tuman (shahar)larida tashkil etildi<sup>2</sup>

Ushbu qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi yuridik xizmat markazlar faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- yuridik xizmat ko'rsatiladigan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlash;
  - davlat tashkilotlariga sifatli va malakali yuridik yordam ko'rsatish;
  - davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish;
  - davlat tashkilotlarining mulkiy hamda boshqa huquqlari va qonuniy manfaatlari o'z vaqtida, har tomonlama va samarali himoya qilinishini ta'minlash;
- davlat organlari va tashkilotlari tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning loyihibaridagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga ko'maklashish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.03.2022 yilda qabul qilingan "Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatini yana-da kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 173-son qarori ham yuridik xizmat sohasini rivojlantirishdagi muhim qadam bo'ldi deb aytish mumkin.

Yuridik xizmati mavjud bo'lman davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini, ayniqsa, o'rta va quyi bo'g'inda huquqiy jihatdan ta'minlash hamda ularga sifatli va professional yuridik xizmat ko'rsatish maqsadida 2022 yil 1 avgustdan boshlab bosqichma-bosqich Markazlar tomonidan respublikaning barcha tuman va shaharlarida yuridik xizmat bilan ta'minlanmagan davlat organlari va tashkilotlarining quyidagi tuman (shahar) bo'linmalariga yuridik xizmat ko'rsatilishini ta'minlash quyidagi tashkilotlar bilan to'ldirildi: mahalla va nuroniyarlari qo'llab-quvvatlash bo'limi; qishloq xo'jaligi bo'limi; turizm va madaniy meros bo'limi; oila va xotin-qizlar bo'limi; yoshlar ishlari bo'limi; davlat soliq inspeksiyasi; aholi bandligiga ko'maklashish markazi; davlat umumiyl o'rta ta'lim maktablari; davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari; davlat ko'p tarmoqli markaziy va oilaviy poliklinikalar.<sup>3</sup>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 29 iyundagi PQ-5168-son qarori <https://lex.uz/docs/5482934>.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.03.2022 yilda qabul qilingan "yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 173-son qarori.



## Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1<sup>st</sup> July - 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

2022 yil 1 mayga qadar “E-huquqshunos” elektron tizimini texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash va maslahatlar berib borish maqsadida “call-markaz” faoliyatini yo‘lga qo‘yish, 2022 yil 1 avgustga qadar davlat organlari va tashkilotlarining tuman (shahar) bo‘linmalarini “E-huquqshunos” elektron tizimiga shartnoma asosida ulash va ularga xizmat ko‘rsatish, bosqichma-bosqich davlat umumiy o‘rta ta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda ko‘p tarmoqli markaziy va oilaviy poliklinikalarni “E-huquqshunos” elektron tizimiga bepul asosda ulash va ularga xizmat ko‘rsatishni amalga oshirish belgilandi.

Bugungi kunda yurtimizda yuridik xizmat faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bunday islohotlarning amalga oshirilishi, huquqiy mexanizmlarining takomillashtirilishi provardida barcha davlat hokimiyat organlari, boshqaruva organlari, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida qonuniylikni ta’minalash, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish uchun xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. 21.12.1995-y.  
<https://lex.uz/docs/111189>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 19 yanvardagi PQ-2733-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3098964>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko‘rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 29 iyundagi PQ-5168-son qarori. <https://lex.uz/docs/5482934>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.03.2022 yilda qabul qilingan “yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari faoliyatini yana-da kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 173-son qarori.
6. F.X.Otaxonov Yuridik xizmatning nazariy-huquqiy muammolari. Monografiya / Mas’ul muharrir Toshqulov J.O‘. – T.: 2019-y.